ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

IJTIMOIY-GUMANITAR

UDK:364,65:061.2
ORCID: 0009-0001-6414-1748

O'ROLOVA MALIKA TO'LQIN QIZI
TerDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix kafedrasi o'qituvchisi
E-mail:uralovamalika25@gmail.com

ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISHDA JAMOAT TASHKILOTLARINING O'RNI (2010-2015- yillarda Surxondaryo viloyati misolida)

ANNOTATSIYA: Onalik va bolalik muhofaza qilish - har bir jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, bu sog'lom avlodni tarbiyalash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu soha doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar va dasturlar onalik va bolalik o'limini kamaytirish, bolalar immunizatsiyasini oshirish, sport faoliyatini kengaytirish hamda onalar va bolalar uchun sifatli tibbiy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan. Surxondaryo viloyatida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar shu jumladan, "Mahalla" jamg'armasining tuman hududiy birlashmalarida olib borilgan ishlar yuzasidan keng ko'lamli ma'lumotlar keltirilgan. Kam ta'minlangan, nogironligi bor oilalar holidan xabar olmoq shu bilan birga ma'naviy,iqtisodiy ko'mak masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: *Ijtimoiy himoya, ona va bola salomatligi, "Sog'lom oila" loyihasi, "Mahalla" jamg'armasi , "Salomatlik- 2" dasturi , bola sport turlari.*

ИСТОРИЯ ОХРАНЫ МАТЕРИНСТВА И ДЕТСТВА (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 2010-2015 ГГ.)

АННОТАЦИЯ: Охрана материнства и детства – одна из важнейших задач каждого общества, имеющая большое значение для воспитания здорового поколения и обеспечения социальной стабильности. Мероприятия и программы, реализуемые в рамках этого направления, направлены на снижение материнской и детской смертности, повышение уровня вакцинации детей, развитие спорта и предоставление качественных медицинских услуг матерям и детям. В статье представлена обширная информация о масштабных реформах, проводимых в Сурхандарьинской области, в том числе о работе, осуществляемой в районных территориальных объединениях фонда «Махалля». Приведена информация о положении малообеспеченных семей с инвалидностью, а также о вопросах морально-экономической поддержки.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Социальная защита, здоровье матери и ребенка, проект «Здоровая семья», фонд «Махалля», программа «Здоровье-2», детский спорт.*

HISTORY OF MATERNITY AND CHILDHOOD PROTECTION (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA REGION IN 2010-2015)

ABSTRACT: Maternity and childhood protection is one of the main tasks of every society, which is of great importance in raising a healthy generation and ensuring social stability. Activities and programs implemented within this area are aimed at reducing maternal and child mortality, increasing child immunization, expanding sports activities, and providing quality medical services for mothers and children. Extensive information is provided on the large-scale reforms being carried out in Surkhandarya region, including the work carried out in the district territorial associations of the «Mahalla» Foundation. Information is provided on the situation of low-income families with disabilities, as well as on issues of moral and economic support.

KEY WORDS: *Social protection, maternal and child health, "Healthy Family" project, "Mahalla" fund, "Health-2" program, children's sports.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi dolzarb masalaga aylangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 – yil, 13-iyunda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish to'g'risidagi " Farmoyishi e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil, 19 –dekabrdagi F-1306-son farmoyishiga mufoviq, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil

5-fevraldagi "Ona va bola davlat dasturi to'g'risida"gi 58-qarori ham aynan onalika va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlari tatbiq etishga qaratilgan.2010-2015 yillarda O'zbekiston Respublikaning Surxondaryo viloyatida onalik va bolalik sog'lig'ini yaxshilash va turli qonun va farmonlarga qaratilgan bir qator muhim tadbirlar va dasturlar amalga oshirildi. Ushbu davrda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan statistik ma'lumotlar, qonuniy hujjatlar va ijtimoiy tashabbuslar aholi o'rtasida onalik va bolalik sog'lig'ini yaxshilashga va muhofazasini ta'minlashga xizmat qildi.

MAQOLANING MAQSADI. Maskur maqola Surxondaryo viloyati hududida olib borilayotgan onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi turli xil ijtimoiy va iqtisodiy masalalarning nazariy metodalogik tatqiqot masalalarining ayrim jarayonlari tarixi haqida ma'lumot beradi. Mavzu doirasida yillar ketma-ketligida mantiqiy jihatdan mos bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishasiz. Viloyat olib borilgan keng ko'lamli ishlardan namunalar sifatida turli xil asosli dalillardan ma'lumotlar olinib mavzu ko'lami ochib berilgan. Farmon va qarorlar bilan bir qatorda , viloyatda 1935-yildan beri nashr qilinib kelinayotgan Surxon tonggi gazetasidagi maqolalardan ma'lumotlar keltirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mustaqilligimiz tufayli mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi dolzarb masalaga aylangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil, 13- iyunda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish to'g'risidagi " Farmoyishi e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida "Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarga mo'jallangan dasturini amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. 2011-yil, 28- fevralda "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini ya'nada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 50 sonli qarori qabul qilindi Maqolada, bolalar o'rtasida sog'liq va sport masalalariga ham to'xtalib o'tilgan.Bundan tashqari maqolada, mahalliy gazetalardan "Surxon tongi" gazetasi maqolalaridan ham unumli foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. 2010-yil "Mahalla" jamg'armasi viloyat bo'limiga homiylar tomonidan o'tkazilgan mablag' hisobiga Termiz tumanidagi 534 ta va Termiz shahridagi 18 ta kam ta'minlangan oilalarning yashab turgan uylari fasad qismi , derazaromlari,darvozalarita'mirlandi. 34 ta kam ta'minlangan oilaning uylari tom qismlari to'liq ta'mirlanib, yangi shiferlar qoqildi. Bundan tashqari, 14 ta kam ta'minlangan oila yashab turgan uylarini qayta ta'mirlash uchun qurilish materiallari olib berildi. Termiz tumanidagi "Chegara" mahallasidagi 8 ta kam ta'minlangan oila hovlisini g'isht devor bilan o'rash va ta'minlash uchun 28,9 million so'm, obodonlashtirish uchun jami 239,9 million so'm ajratildi. Shunindek, "Mahalla" jamg'armasiga homiylar tomonidan berilgan 610 dona 7,9 million so'mlik shifer 20 ta kam ta'minlangan oilaga bo'lib berildi. Viloyatimisdagi tog'oldi va boorish qiyin bo'lgan aholi punktlarida yashayotgan kam ta'minlangan oilalarning yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojlari aniqlanib, 20,5 ming tonna ko'mir jamg'arilib, imtiyozli narxlarda yetkazib berildi.[1,4] Viloyatimizda yaxshi bir ana'na bor. Mahallarda istiqomat qilayotgan kam ta'minlangan, nogiron, boquvchisini yo'qotgan oilalar farzandlarini sunnat va nikoh to'ylarini o'tkazildi. Jumladan, 2009 -yilda har bir tumandan 5 tadan, jumladan qishloqda yashovchi 75 tadan, jami 91 ta kam ta'minlanlangan oila farzandlarining nikoh hamda sunnat to'ylari o'tkazildi. Shu yili "Mahalla" jamg'armasi hisobiga oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida ta'lim olayotgan 17 nafar nogiron, ota-onasiz, yarim yetim talablarga o'quv- kontrakt shartnomasi to'lovi uchun 9 million so'm mablag' ajratildi.[2,4] 2010 yil mustaqillik bayrami munosabati bilan Surxondaryodagi sahovatpesha insonlar, kasaba uyushmalar viloyat birlashmasi, aholini ish bilan ta'minlash "Bandlik" markazi va "Mahalla" jamg'armasi viloyat bo'limi mablag'lari hamda iqtisodiy baquvvat tashkilotlarning ixtiyoriy homiyligi asosida 14 ta shhar va tumanlarda yashayotgan kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarga 500 bosh qoramol hadya sifatida ulashildi.[3, 2]

2010-yil natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, viloyatda qayd etilgan 22115 nikohning 17758 ta holatida 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar o'z ixtiyorlari bilan tibbiy ko'rikdan o'tgan.[4,7] Tibbiy ko'rik nafaqat insonni sog'lig'ini balki ona va bola muhofazasini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. 2010- yilda viloyatimizda tug'ish yoshdagi ayollarning 99,1 foizi tibbiy ko'rikdan o'tqazildi. Olib borilgan sog'lomlashtirish tadbirlari natijasid tug'ishi mumkin bo'lmagan ayollarning 4 ming 83 nafari ona bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi. Eng muhimi, viloyatda sog'lomlashtirish tadbirlari tufayli onalar va bolalar o'limi keskin kamaydi.Shuningdek, FHDYO organlari qoshida 15 ta "Yosh oila" maktabi tashkil etilgan bo'lib, 2010-yilda ular vositasida 8541 ta amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Bu mashg'ulotlarga 32561 nafar nikohdan o'tgan yoshlar jalb qilindi. 2011-yilda 679 nafar diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar joylarda oilalar bilan muloqotda bo'lishib,

ijtimoiy- ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida ish olib bordi.[5,1] 2011- yil 28-fevralda "Maktabdan tashqari ta'lim tizimini ya'nada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 50-sonli qarori qabul qilindi. Yuqoridagi qaror asosida mamlakatimizdagi har bir tuman va shaharda "Barkamol avlod" bolalar markazi, shuningdek, viloyat bolalar markazi tashkil etildi. Shuningdek, 2011-yilda Respublikamizda 215 ta bolalar markazi faoliyat yuritib boshladi. Surxondaryo viloyatida esa 16 ta bolalar markazi tshkil etildi. Bolalar markazlari zamonaviy asbob- uskunalar va jihozlar bilan ta'minlanish rejasi 2011-2014 yillarga mo'jallangan dastur rejasida belgilandi.[6,6] 2005 yilda viloyatda mutlaqo sog'lom bolalar ko'rsatkichi 63,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 72,4 foizga yetgan. Bu albatta asosiy e'tibor bolalarning muntazam sport bilan shug'ullanishi hamda davlat va jamiyat tomonidan olib borilayotga muhofazaga bog'liqdir. 2005-2010 yillar oralig'ida 10-14 yoshdagi bolalarning bo'yi o'rtacha 2,6 sm, qiz bolalarning bo'yi 2,2 smga, vazni tegishli ravishda 3 kg 300 grammgacha oshgabligini ko'rishimiz mumkin. Viloyatda 2004-2011-yillar ichida bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 91 ta sport inshoatlari qurilgan bo'lib, ularning 64 tasi maktab sport zallari, 3 tasi suzish havzasi, 10 tasi na'munaviy sport inshootlari hisoblanadi. 2011-yilda jamg'arma mablag'i hisobidan 15 ta obyekt , jumladan 9 ta bolalar sport obyekti, 1 ta suzish havzasi, 5 ta musiqa va san'at maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va capital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shularning 14 tasi qishloq joylarda bunyod etildi. Badiiy gimnastika sport turi bo'yicha shug'ullanuvchilar soni 2010-yil boshida 529 nafarni tashkil etgan bo'lsa, yilning yakunida ularning soni 1021 nafarga yetgan.Badiiy gimnastika sport turini rivojlantirish maqsadida 2010-yil mobaynida 6 nafar murabbiyning malakasi oshirildi. Yangi barpo etilgan 109 ming o'rinli stadion qoshida "Badiiy gimnastika markazi" tashkil etildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra muntazam sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanuvchi bolalar soni 145 ming 119 nafarni tashkil etdi.[7,2] Shu bilan birga onalar muhofazasi yuzasida viloyatimizda turli xil tadbirlar va musobaqalar tashkil etildi. Jumlada, Respublikamizda bo'ylab o'tkaziladigan "Ayollar sport festivali" oltinchi martasi navquron Termiz shahrida o'tkazildi. Festival 21-23-iyul kunlari bo'lib o'tdi. Respublikamizda sport bilan shug'ullanadigan va o'z sog'ligining muhofazasini ta'minlanlay oladigan ayollar soni yildan yilga oshib bormoqda. Jumladan, 2011-yil statistik ma'lumotlar ko'ra, ayollar soni 1,9 mln nafarni tashkil etadi, sport bilan muntazam shug'ullanayotganlar esa 680,4 ming nafarni tashkil etadi.[8, 6] Sog'lom ona muhofazasida sog'lom bola dunyoga keladi. Jumladan Jarqo'rg'on tumani misolida 2010-2011 yillar orasida "Salomatlik-2" dasturi bo'yicha akusherlik kompleksiga 70 turdagi zamonaviy tibbiy asbob- uskunalar keltirildi. Jumladan, og'ir bemorlar holatini kuzatib borishga apparatlar, chaqaloqlar uchun reanimatsion krovatlar, chaqaloqlarga kislorod beruvchi portative apparatlar, elektr quvvati bo'lmaganda ham 4 soatgacha jarrohlik amaliyotini amalga oshirishga ko'maklashadigan asbob-uskuna bilan ta'minlanganligi shifokorlar ishini har tomonlama yengillatishga hizmat qiladi. 2011-yilda Jarqo'rg'on tumanida 3058 nafar homilador ayol 3070 nafar tetik va sog'lom farzandni dunyoga keltirishdi. Bachadon shamollashi, mioma, kamqonlik 12 haftalik homilaning tushish xavfi bo'lgan vaboshqa ginekolog kasalliklarga duchor bo'lgan 670 nafar homilador ayol shifokorlarning sa'yi-harakati bilan davolanib, sog'lom farzand tug'ish baxtiga sazovor bo'ldilar.[9,2]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston xotin-qizlar faoliyatini qo'llab- quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2004-yildagi PF-3434 farmoni va Vazirlar Mahkamasining 299-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar taxsinga loyiqdir. 2011-yil viloyatimizdagi barcha shahar va tumanlardagi mahalla fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy axloqiy tarbiya masalari bo'yicha maslahatchilarning hududiy o'quv seminarlari bo'lib o'tdi. Unda respublikada ijtimoiy manaviy muhitni sog'lomlashtirish va muhofazasini oshirish, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanish, samaradorligini oshirishda maslahatchilarning vazifalari tahlil qilindi. 2011-yilda shahar va tumandagi bandlikka ko'maklashuvchi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markzalariga 15884 nafar ayol ish so'rab murojaat qilgan bo'lsa, ulardan 14729 nafari xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga ishga joylashtirildi. Shuningdek, vohadagi mavjud mahallalarda kasanachilik, oilaviy bisnes, tadbirkorlik, milliy hunarmandchillikni rivojlantirish evaziga 422 ta yangi ish o'rin yaratildi. Viloyatimizda xotin-qizlar reproduktiv salomatlikni mustahkamlash borasida arzirli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tug'ish yoshdagi ayollarning 98,5 foizi ko'rikdan o'tkazilib, aniqlangan kasalliklarni davolash choralari ko'rildi. 2012-yilda viloyat aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatishni ya'nada yaxshilash maqsadida 28,2 milliard so'm mablag' ajratilgani quvonarli holatdir.[10,2] 2011-yil viloyatimizda 675 ta namunaviy loyiha asosida , zamon talablariga javob beradigan , barcha qulayliklarga ega uy- joylar qurilib, yosh oilalarga foydalanishga topshirildi. Denov tumanida bolalar muhofazasiga doir bir qator samarali ishlar olib borildi. Jumladan, 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 2368 nafar sportchi qizga Prezident sovg'alari topshirildi. Denov tumanida 2012-yilda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 25 ming nafardan ortiq bola sport turlari bilan shug'ullandi. Shuning 12 minggdan ortig'ini qizlar tashkil etadi. Masalan, 2003-2011 yillar davomida 11 ta sport zali qurildi va foydalanishga topshirildi. Shuningdek 3 ta sport majmuasi qurilib, ishga tushirildi.2012-yilda markaziy o'yingoh ishga tushirilishi

uchun 1 milliard 200 million so‘m mablag‘ ajratilgan. 2011-yilda denovlik o‘quvchilarning 5 nafari xalqaro musobaqalarda qatnashib, uch nafari 2-, ikki nafari esa 3-o‘rinlarni qo‘lga kiritishdi. Respublika musobaqalarida 395 nafar denovlik o‘quvchi ishtirok etib, 62 nafar 1- , 97 nafar 2-, 149 nafar esa 3- o‘rinlarni zabt etishdi. 4 nafar o‘quvchi sport ustasi unvoniga ega bo‘lishdi.[11,1] “Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi”, “2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni ya’nada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora- tadbirlari Dasturi to‘g‘risida”gi qarorlar ijobiy natija berdi. “Salomatlik-2 ” loyihasi asosida qishloq vrachlik punktlari va tuman tibbiyot birlashmalariga 3,4 milliard so‘mlik tibbiy jihoz hamda zamonaviy uskunalar keltirib o‘rnatilganligi ya’na bir misoldir.[12,2] Turli xil kasalliklarning oldini olish va muhofazasini oshirish maqsadida turli xil choralar ishlab chiqildi. Shol (poliomilit) asosan bolalarda uchraydi. Buning oldini olishning yagona yo‘li emlashdir. Mamlakatimizda 90-yillardan boshlab, milliy emlash jadvali ishlab chiqildi. 2002-yilda mamlakatimiz “O‘zbekiston poliomilit virusdan xoli hudud” ligi to‘g‘risida emlash va uning foydasi Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sertifikatini oldi. 2012- yil 23-28 aprel hamda 21-23 may kunlari shol kasalligiga qarshi milliy emlash kunlari o‘tkazildi.Huddi shu maqsadda viloyatimiz bo‘yicha 5 yoshgacha jami 242000 nafar bolaning milliy emlash rejalashtirildi.[13,6] Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarga xotin-qizlarning ijtomoiy- siyosiy faolligi yanada oshdi, ular oila, davlat va jamiyat qurilishidagi vazifalarini hal etishdagi hamda nufuzi yuksaldi. 2013-yil Oliy Majlis Qonunchillik palatasidaham qizlar 22 foizni, senatda 15 foizni tashkil etadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchilardan bo‘lib BMTning “Xotin-qizlar huquqlari kamsatilishining barcha shakllariga bo‘lib ham berish to‘g‘risidagi Konventsiyasi”ga qo‘shildi.O‘zbekistonning bugungi taraqqiyotiga faol mehnat resurslarining 45,1 foizini xotin- qizlar tashkil etib, ishlab chiqarishning barcha sohalarida ayollar yetarli mavqega ega.[14,4] “Salomatlik-1”, “Salomatlik-2” loyihalari asosida bu yerda infratuzilmani yanada rivojlantirish borasida muhim ishlar olib borildi.Perinatal markaz qisqa muddatda zamonaviy asbob- uskunalar bilan jihozlandi. 2013-yilda Yaponiya granti asosida 114 ming AQSH dollarlik uchta yangi rusumli tibbiy apparat olib kelindi.[15,2] Onalar va bolalar huquq va qonuniy manfaatlari himoyasi bo‘yicha tashkilot va idoralar, boshqarmalar hamkorligi amalda ijobiy natija berdi. Statistika ma’lumotlarga ko‘ra, vohadagi 858 ta umumta’lim maktabi, 121 ta akademik litsey va kasb- hunar kolleji, 32 ta maktabdan tashqari ta’lim muassasasi, Mehribonlik uyi, 2 ta maxsus makta-internatda minglab yoshlar jahon talablari darajasida ta’lim- tarbiya olishdi.[16, 6]

XULOSA. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar onalik va bolalikka qaratilgan qonun loyiha va dasturlarning barchasi yurt farovonligi, aholi salomatligini saqlash va tiklashga qaratilgan , asosiysi onalik va bolalik huquqlari kafolati, har javhada ularning muhofazasi jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1.Surxon tongi gazetasi 2010 yil 9 fevral
2.E.Qo‘chkinov “G‘amxo‘rlik bir kun emas” maqolasi , Surxon tongi gazetasi 2010 yil 9 fevral
3.Surxon tongi gazetasi 2010- yil 26 -avgust
4.Surxon tongi gazetasi. 2011-yil 18- fevral
5.Surxon tongi gazetasi 2011-yil 11- mart
6.Surxon tongi gazetasi 2011- yil 29- mart
7.Surxon tongi gazetasi 2011- yil 22- aprel
8.Surxon tongi gazetasi 2011- yil 1- avgust
9.Surxon tongi gazetasi 2011- yil 7- dekabr
10.Surxon tongi 2012- yil 1- mart
11.Surxon tongi gazetasi 2012- yil 25- mart
12.Surxon tongi gazetasi 2012- yil 19- aprel
13.Surxon tongi gazetasi 2012- yil 26- aprel
14.Surxon tongi gazetasi 2013 -yil 6 -iyun
15.Surxon tongi gazetasi 2014- yil 20- fevral
16.Surxon tongi gazetasi 2014- yil 14- avgust